



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING  
BUYRUG‘I**

2024 - yil « 13 » avgust 307 -son

Toshkent shahri

**Oliy ta‘lim muassasalari uchun xorijiy adabiyotlarni sotib olish va mualliflik huquqiga amal qilgan holda tarjima qilish hamda chop etish jarayonini tashkil etish reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2024-yil 5-fevral kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan “Ta‘lim, sog‘liqni saqlash, raqamlashtirish, madaniyat va sport yo‘nalishlari bo‘yicha 2024-yilgi ustuvor vazifalar to‘g‘risida”gi videoselektor yig‘ilishining 9-son bayoniga muvofiq Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-iyundagi 7/1-83-son topshirig‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. Oliy ta‘lim muassasalari uchun xorijiy adabiyotlarni sotib olish va mualliflik huquqiga amal qilgan holda tarjima qilish hamda chop etish jarayonini tashkil etish reglamenti ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. **Oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi** (M. Boltabayev) oliy ta‘lim muassasalari uchun xorijiy adabiyotlarni tarjima huquqi bilan birga sotib olish, tarjima qilish hamda chop etish jarayonini mazkur buyruq bilan tasdiqlangan reglamentga muvofiq amalga oshirilishini ta‘minlasin.

3. Ushbu buyruq ijrosining nazorati vazirning birinchi o‘rinbosari Sh. Daliyev zimmasiga yuklansin.

Vazir



**NUSXA  
ASLIGA TO‘G‘RI**

K.Sharipov

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirining 2024-yil 13 -avgustdagi  
307-son buyrug'iga  
ilova

**Oliy ta'lim muassasalari uchun xorijiy adabiyotlarni sotib olish  
va mualliflik huquqiga amal qilgan holda tarjima qilish hamda  
chop etish jarayonini tashkil etish  
REGLAMENTI**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Reglament oliy ta'lim muassasalarida foydalanish uchun xorijiy o'quv va ilmiy adabiyotlar ro'yxatini shakllantirish, ularni sotib olish (mualliflik huquqiga amal qilgan holda), tarjima qilish hamda chop etish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Reglamentda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**Ishchi organ**— O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi;

**Pilot oliy ta'lim muassasalari** - Ta'lim sohalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi soha kengashlari mavjud bo'lgan davlat oliy ta'lim muassasalari;

**Muvofiqlashtiruvchi soha kengashlari (MSK)**— Ta'lim sohalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi soha kengashlari;

**Tarjimon** - Tarjimon huquqiga ega (sertifikat yoki boshqa rasmiy hujjat bilan tasdiqlangan) bo'lgan, chet tilini IELTS-6.0 va undan yuqori darajada (shu jumladan, boshqa chet tillaridan tarjima qilishda muvofiq daraja nazarda tutiladi) biladigan (tasdiqlovchi hujjat bilan) mutaxassis;

**Ekspert**— Sohaga oid ta'lim muassasasi, ilmiy muassasa va boshqa tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan oliy ma'lumotli mutaxassis (rahbar);

**Tarjima adabiyotlar** — mualliflik huquqlariga amal qilgan holda o'zbek tiliga tarjima qilingan xorijiy o'quv va ilmiy adabiyotlar;

**Tarmoq jadvali**— xorijiy o'quv va ilmiy adabiyotlarni tarjima va tahrir qilish, ekspertizadan o'tkazish muddatlari aniq belgilangan hujjat.

**2-bob. Oliy ta'lim muassasalari uchun xorijiy adabiyotlar ro'yxatini  
shakllantirish va xarid qilish tartibi**

3. Pilot oliy ta'lim muassasalarida xorijiy o'quv va ilmiy adabiyotlar ro'yxatini shakllantirish bo'yicha rektor boshchiligida komissiya (keyingi o'rinlarda — Komissiya) tashkil etiladi. Komissiya tarkibiga o'quv va ilmiy ishlar bo'yicha prorektor, tegishli fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, axborot-resurs markazi rahbari, oliy ta'lim muassasasining mahalliy va xorijiy hamkor tashkilotlari vakillari hamda turdosh oliy ta'lim muassasalari mutaxassislari kiritiladi.

4. Komissiya tomonidan o‘n kun muddatda muayyan ta’lim yo‘nalishlari yoki mutaxassisliklar bo‘yicha professor-o‘qituvchilar tarkibidan iborat ishchi guruhlar (keyingi o‘rinlarda – Ishchi guruhlar) shakllantiriladi va tasdiqlanadi.

5. Bir oy muddatda ishchi guruhlar mavjud imkoniyatlardan foydalangan holda tegishli ta’lim yo‘nalishi yoki mutaxassislikka oid zamonaviy, ilg‘or nazariy va amaliy bilim, uslubiyot, ma’lumot, ilmiy va texnologik yangiliklarni o‘z ichiga olgan xorijiy o‘quv va ilmiy adabiyotlarni izlab topadi va aniqlaydi.

6. Ishchi guruhlar tomonidan aniqlangan xorijiy o‘quv va ilmiy adabiyotlar o‘n besh kun muddatda Komissiya tomonidan umumlashtiriladi va belgilangan talablarga javob berishi yuzasidan tahlil qilinadi hamda Ishchi organga taqdim etiladi. Zarur hollarda Komissiya tomonidan Ishchi organ bilan kelishgan holda ro‘yxatga o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

7. Ishchi organ ikki oy muddatda pilot oliy ta’lim muassasalari tomonidan taqdim etilgan tarjima qilinadigan xorijiy o‘quv va ilmiy adabiyotlar ro‘yxatlarini umumlashtiradi. Umumlashtirilgan ro‘yxatda bilim va ta’lim sohalari, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha takrorlanadigan xorijiy adabiyotlarni aniqlaydi, takrorlanishlarni pilot oliy ta’lim muassasalari bilan kelishilgan holda bartaraf etadi va optimallashtiradi hamda umumlashtirilgan yakuniy ro‘yxatni kelishish uchun Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik deb yuritiladi) taqdim etadi.

Kelishilgan ro‘yxat asosida Ishchi organ bir oy muddatda xorijiy o‘quv va ilmiy adabiyotlarni tarjima huquqi bilan birga sotib olish, tarjima qilish hamda chop etishga sarflanadigan mablag‘lar hisob-kitobini shakllantiradi va Vazirlikka taqdim etadi.

8. Xorijdan tarjima huquqi bilan birga sotib olinadigan hamda tarjima qilinadigan adabiyotlar ro‘yxati Vazir buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

9. Vazir buyrug‘i bilan tasdiqlangan ro‘yxatga muvofiq zarur mablag‘lar O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchi sifatida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ajratiladigan mablag‘lar doirasida Ishchi organning budjet xarajatlar smetasida ko‘zda tutiladi.

10. Ishchi organ tomonidan mazkur ro‘yxatdagi xorijiy o‘quv va ilmiy adabiyotlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda xarid qilinadi.

11. Xorijiy o‘quv va ilmiy adabiyotlar ro‘yxatini shakllantirishda faqat chet eldan markazlashgan holda xarid qilish zarur bo‘lgan o‘quv va ilmiy adabiyotlar kiritilishi, internet va boshqa manbalar orqali oliy ta’lim muassasasi tomonidan xarid qilinadigan, chet eldan yakka tartibda olib kelinadigan, homiy yoki hamkor tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan xorijiy adabiyotlarning umumiy ro‘yxatiga kiritilmasligi bo‘yicha pilot oliy ta’lim muassasasida tuzilgan Komissiyalar mas’ul hisoblanadi va nazorat qiladi.

### **3-bob. Sotib olingan xorijiy o'quv va ilmiy adabiyotlarni tarjima va tahrir qilish, ekspertizadan o'tkazish hamda chop etish tartibi**

12. Ishchi organ tomonidan belgilangan tartibda xarid qilingan xorijiy o'quv va ilmiy adabiyotlarni tarjima va tahrir qilish (mualliflik huquqini inobatga olgan holda) hamda ekspertizadan o'tkazish maqsadida pilot oliy ta'lim muassasalarida har bir ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassislik bo'yicha professor-o'qituvchilar tarkibi va jalb etilgan mutaxassislardan iborat (kamida 3 kishi) tarjimon-mutaxassislar guruhleri (keyingi o'rinlarda — tarjimon-mutaxassislar guruhleri) tashkil etiladi.

Bunda, tarjimon-mutaxassislar guruhleri tarkibi guruh rahbari, tarjimon, ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassislik bo'yicha ekspertdan iborat bo'ladi.

Tarjimon-mutaxassislar guruhlariga xorijiy o'quv va ilmiy adabiyotlarni tarjima va tahrir qilish hamda ekspertizadan o'tkazish maqsadida qo'shimcha mutaxassislar jalb etilishi mumkin.

13. Ishchi organ pilot oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan har bir tarjimon-mutaxassislar guruhleri tarkibi va ularning ish faoliyatini tashkil etish bo'yicha tarmoq jadvalini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

14. Tarjimon-mutaxassislar guruhleri o'zlariga biriktirilgan xorijiy adabiyotlarni Ishchi organ tomonidan tasdiqlanadigan tarmoq-jadvali asosida tarjima qilinishi va tahrirdan o'tkazilishini ta'minlaydi.

15. Ishchi organ tarjimon-mutaxassislar guruhleri tomonidan tarjima va tahrir qilingan tarjima adabiyotlarni Muvofiqlashtiruvchi soha kengashlarida ekspertizadan o'tkazadi.

Ekspertiza jarayonida aniqlangan kamchiliklar Ishchi guruhlar bilan kelishgan holda bartaraf etiladi.

16. Muvofiqlashtiruvchi soha kengashlari ekspertiza natijasiga ko'ra ijobiy xulosa bilan baholangan xorijiy o'quv va ilmiy adabiyotlarning har biri bo'yicha asoslangan xulosa (uning o'zbek tilidagi adadi, nashr etish manbalari jumladan, markazlashgan budjet mablag'lari, oliy ta'lim muassasalarining mablag'lari va boshqalar) taqdim etadi.

17. Ishchi organ tomonidan chop etishga tavsiya etilgan tarjima adabiyotlar ro'yxatida ularni tarjima va tahrir qilgan pilot oliy ta'lim muassasasi, tarjimonlar familiyasi va ismi, tarjima adabiyotning turi, uning hajmi, adadi va moliyalashtirish manbasi ko'rsatilgan holda Vazirlikka taqdim etiladi.

18. Muvofiqlashtiruvchi soha kengashlari tomonidan tavsiya etilgan tarjima adabiyotlar Vazir buyrug'i bilan chop etishga ruxsat beriladi.

19. Chop etishga ruxsat berilgan tarjima adabiyotlar Ishchi organ tomonidan belgilangan tartibda nashr qilinadi va ehtiyojga muvofiq tegishli oliy ta'lim muassasalarining axborot-resurs markazlariga joylashtirish uchun taqdim etiladi.

#### **4-bob. Xorijiy o'quv va ilmiy adabiyotlarni tarjima va tahrir qilish hamda ekspertizadan o'tkazishni amalga oshiradigan mutaxassis va professor-o'qituvchilar mehnatiga haq to'lash tartibi**

20. Xorijiy o'quv va ilmiy adabiyotlarni tarjima qilish bo'yicha pilot oliy ta'lim muassasalarida har bir ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklar kesimida tuzilgan tarjimon-mutaxassislar guruhlarini tarkibiga kiritilgan tarjimonlarga Ishchi organ tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda haq to'lanadi.

21. Tarjimon-mutaxassislar guruhlarini tomonidan bajariladigan xizmatlarga haq to'lash tarjimon-mutaxassislar guruhlarini bilan tuziladigan fuqarolik huquqiy tusdagi shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

22. Tarjimonlar mehnatiga haq to'lash O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchi sifatida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ajratiladigan mablag'lar doirasida Ishchi organning budjet xarajatlar smetasida ko'zda tutilgan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

23. Tarjimon-mutaxassislar guruhlarini tarkibiga kiritilgan guruh rahbari, ekspertlar Vazirlik ko'rsatmasi asosida pilot oliy ta'lim muassasalarining budjet va budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan moddiy rag'batlantiriladi.

#### **5-bob. Yakunlovchi qoidalar**

24. Ushbu Reglamentni qo'llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

25. Mazkur Reglament talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.